


14-umumta'lim maktabi boshlang'ich
sinf o'qituvchisi Muzaffarova Azizaning
Matematika fanidan "Yuzliklar"
mavzusida namunali dars ishlanmasi



Mavzu: Yuzliklar

- ***Maqsad:***
- ***Ta’limiy:*** O’quvchilarga 3 xonali sonlar, yuzliklar bo’yicha tushuncha berish, yuzliklarni o’qish va yozishni o’rgatish, yuzliklar ustida amallar qanday bajarilishi haqida ma’lumotlar berish.
- ***Tarbiyaviy:*** Buyuk allomalarimiz va Al-Xorazmiyning matematika rivojiga qo’shgan buyuk ishlarini bayon qilish orqali o’quvchilarga o’z Vataniga bo’lgan g’ururlarini oshirish.
- ***Rivojlantiruvchi:*** matematik boshqotirma ustida fikr-mulohaza yuritishga jalb qilish orqali mantiqiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish.
- ***Dars turi:*** o’zaro o’qitib o’rgatish darsi
- ***Dars usuli:*** kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, “Hisobchi shakllar”
- ***Dars jihozi:*** darslik, chizg’ich, mavzuga doir plakatlar, test savollari, sanoq cho’pchalari, Al-Xorazmiy va buyuk siymolar rasmlari
- ***Nazorat shakli:*** og’zaki so’rov, doskada va mustaqil ishlash
- ***Kutilayotgan natijalar:*** 3 xonali sonlar, yuzliklar, ming haqida tasavvurga, yuzliklarni o’qish va yozish malakasiga ega bo’lish, berilgan tomonlariga to’g’ri to’rtburchak perimetrini topishni uddalay oladilar.

Darsning borishi

Tashkiliy qism. (5 daqiqa)

- ***O'qituvchi:*** Bolajonlar sog' omonimsiz,
 - Bugun darsga tayyormisiz?
- ***O'quvchilar:*** Hammamiz sog' omonmiz,
 - Bugun darsga tayyormiz.
- ***O'qituvchi:*** Sizlar qanday bolalarsiz?
- ***O'quvchilar:*** Buyuk yurt osmonida go'zal kamalak
 - Barkamol avlod bo'lmoq – eng ezgu tilak.
- *O'quvchilar bilan yurtimizda yuz berayotgan eng so'nggi yangiliklar hamda kuz fasli haqida ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.*

O'tgan mavzuni so'rash. (10 daqiqa)

- Hozir sizlar bilan o'rganilgan mavzular yuzasidan egallagan bilimlaringizni sinab ko'ramiz.

“Hisobchi shakllar” mashq orqali o'tilgan mavzular mustahkamlanadi.

Matematika faniga hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz haqida ma'lumot beriladi.

Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kitobidan:

“Muhammad Muso Xorazmiyning o'nlik sanoq sistemasi, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoga birinchi bo'lib ilm-fan sohasiga joriy etgani va shu asosida aniq fanlar rivoji uchun o'z vaqtida mustahkam asos yaratgani umuminsoniy taraqqiyot rivojiga qanday katta ahamiyatga ega bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. Bugungi kunda odamzodning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini ko'z oldimizga keltirar ekanmiz, beixtiyor ana shu buyuk bobokalonimiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda o'zbek xalqining ham munosib hissasi borligini qalbimiz iftixorga to'ladi”.

Sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linadi.

I-guruh: Muhammad Al-Xorazmiy (783-850)

- Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy taxminan 783 yilda Xorazmda tug'ilgan. Al-Xorazmiy "Al-jabr va al muqobala haqida qisqa kitob" asari bilan algebra faniga asos soldi. Shu asar tufayli olim nomining lotincha "algoritm" termini paydo bo'lgan. Al-Xorazmiy Bog'doddagi "Bayt ul-bikma" (Donishmandlar uyi) da rasadxona, kutubxona va barcha ilmiy tekshirish ishlarida rahbarlik qildi. Uning bizga 10 ta asari yetib kelgan. Al-Xorazmiy matematika rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk olimdir. U 0 dan 9 gacha bo'lgan arab raqamlaridan foydalanib, sonlarning o'nlik sanoq sistemasida xona birliklariga ajratib yozilishini ko'rsatib bergan. Sonlar ustida to'rt amalning qo'llanishini tushuntirib bergan. Al-Xorazmiy 850 yilda Bog'dodda vafot etgan.



II-guruh: Abu Nasr Farobiy (873-950)

- Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' ibn Tarxon Forobiy 873-yilda Forobda tug'ilgan. Forobiy «Fozil shahari aholisi fikri», «Astrologiya bo'yicha izohlar», «Hajm va miqdor haqida kitob», «Isbotlashning shartlari haqida kitob», «Fazo geometriyasiga kirish haqida qisqacha kitob» kabi 160 dan ziyod asar yaratgan, lekin bizga 40 ga yaqini yetib kelgan. Forobiy 950-yilda Suriyaning Damashq shahrida vafot etgan.



III-guruh: Abu Rayhon Beruniy (973-1048)


- Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy 973 yilda Xorazmning qadimgi poytaxti Qiyot hozirgi Beruniy shahri yaqiniga tug'ilgan. Beruniy "Ma'mun akademiyasi"da 1010-1017-yillarda ilmiy faoliyat olib bordi va ko'p fanlarga oid masalalarni hal qildi. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya", "Hindiston", "Sfera nuqtalarini tekislikda tasvirlash", "Yevklid ishlariga izohlar" kabi 160 ga yaqin asarlar yaratdi. "Soyalar risolasi"da trigonometxiyaga oid fikrlarni bayon qildi. Beruniy 1048 yilda 75 yoshida G'azna shahrida vafot etgan.




Guruhlar bilan ishlash qoidasi

- Guruhlarga konvertlar tarqatiladi. Konvertlarga qismlarga bo'lingan geometrik shakllar solingan bo'ladi.
- O'quvchilarga 5 daqiqa vaqt beriladi. Ular avval qismlarga bo'lingan shakllarni tiklaydilar.
- So'ngra misol yechimlari taqdimot qilinadi.
- Shakllarni to'g'ri joylashtirgan guruh a'zolari taqdimot qilayotganda uning sherigi doskaga misolni yozib turadi.
- Yo'l qo'yilgan xatolar boshqa guruhlar tomonidan aniqlanadi.
- Topshiriqni to'g'ri bajargan guruhlarga rag'bat doiralari beriladi.


Dam olish daqiqasi




To'qson tovuq don cho'qir
Suv ichadi yuztasi.





Nechta tovuq bo'ladi
Unda qolsa beshtasi?



????????????




Javob: $(90 + 100 - 5 = 185 \text{ ta})$



Yangi mavzu bayoni (20 daqiqa)


- Bugun sizlar bilan “Minglik”, “Uch xonali sonlarni raqamlash” bo’limini boshlaymiz.
- 1 000 ichida sonlarni og’zaki raqamlashni o’rganish avval o’ntalab, keyin yuztalab hisoblashdan boshlanadi. Buning uchun namoiyish qilinuvchi material sifatida oddiy cho’plardan yoki gugurt cho’plardan foydalaniladi.
- 1 o’quvchi doskaga chiqib 1 dan 10 gacha, cho’plarni alohida sanaydi.
- 10 ta cho’p – o’ntalik dasta ip bilan bog’lanadi.

1) O’nlikda necha birlik bor?



- O'qituvchi oldindan o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'ygan yana 9 ta dastani – 9 ta o'ntalikni olib, boshqa o'quvchilarga o'ntalikni sanashni aytadi. (1 ta o'nlik, 2 ta o'nlik, ..., 10 ta o'nlik) bu dastalarda nechta birlik borligini qanday hisoblash mumkin (o'nta, yigirmata, ..., yuzta)?

2) Yuzlikda necha o'nlik bor?



- Yuzlar sanog'i ham shunday olib boriladi. Bolalar yangi sonlarni (ikki yuz, uch yuz, ..., ming) o'zlashtirishlari, 10 ta yuz mingni hosil qilishini bilishlari kerak.
- **1 ta yuzlik – bir yuz**
- **2 ta yuzlik – ikki yuz**
- **3 ta yuzlik – uch yuz**
- **4 ta yuzlik – to'rt yuz**
- **5 ta yuzlik – besh yuz**
- **6 ta yuzlik – olti yuz**
- **7 ta yuzlik – yetti yuz**
- **8 ta yuzlik – sakkiz yuz**
- **9 ta yuzlik – to'qqiz yuz**
- **10 ta yuzlik – bir ming**

3) Yuzliklarni sanang:



- O'quvchilarga 100 sonidan keyin darhol 200 soni kelar ekan degan tushuncha hosil bo'lmasligi uchun ikkinchi bog'lam yuzlikni yechib, birinchi yuzlik kabi 1 o'nlik orqali, ya'ni 10 ta cho'p orqali sanab (110, 120, 130, ..., 190 deb sanaydilar) keyin oxirgi bog'lam – o'nlikni yechib cho'plarni bittalab sanaydilar.
- ***Yuzliklar, bu – bir yuz (100), ikki yuz (200), uch yuz (300), to'rt yuz (400), besh yuz (500), olti yuz (600), yetti yuz (700), sakkiz yuz (800), to'qqiz yuz (900).***
- ***10 ta yuzlik – bir ming.***
- ***296-misol***
- $100 + 200 = 300$
- $400 - 200 = 200$
- $200 \cdot 3 = 600$
- $400 : 2 = 200$
- ***Yuzliklar ustida amallar birliklar va o'nliklar ustidagi amallar kabi bajariladi.***

297-misol (og'zaki)

- $200 > 100$ $200 < 300$ $500 > 400$
- $300 < 400$ $500 < 800$ $700 > 600$

298-masala




- *Masala sharti o'qiladi. Masalada nima ma'lum?
Masalada nimani topish kerak?*
- Bahodir otasidan – 4 marta kichik
- Bobosidan – 8 marta kichik
- Agar Bahodir – 10 yoshda bo'lsa
- Otasi - ? yoshda
- Bobosi - ? yoshda
- Bahodirning otasi. $10 \cdot 4 = 40$ (yosh)
- Bobosi. $10 \cdot 8 = 80$ (yosh)

299-masala.

- Tomonlari 20 sm va 30 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning perimetrini toping.



- $(20 + 30) \cdot 2 = 50 \cdot 2 = 100$ sm
- “Baliq ovida” o'yini slayd yoki ko'rgazma orqali namoyish etiladi.



- Guruhlarga qoldikli bo'lishga doir misollar beriladi.
-
- $25 : 9 =$ $54 : 4 =$ $63 : 21 =$ $59 : 5 =$
- $81 : 7 =$ $56 : 14 =$ $94 : 8 =$ $27 : 6 =$ $56 : 28 =$

Boshqotirma guruhlarga beriladi.

- 1. 9 ga bo'lganda qoldiqda 7 chiqadigan eng kichik sonni toping. (16)
- 2. Qaysi sonni 3 ga bo'lganda 2 qoldiq qoladi? (5)
- 3. 41 ni shunday songa bo'linki qoldiq 5 ga teng bo'lsin. (6)

Mustahkamlash: (3 daqiqa)

- Agar $a = 35$ bo'lsa, $(50 - a) \cdot 6$ ifodaning qiymatini toping.
- a) 90 b) 80 d) 120
- 526 sonida hammasi bo'lib nechta birlik bor?
- a) 52 b) 6 d) 526
- 308 soni yozuvidagi o raqami nimani bildiradi?
- a) Birlikni b) o'nlikni d) yuzlikni
- Sanoqda 1000 sonidan oldin va keyin keladigan sonlarni belgilang.
- a) 998 va 999 b) 1000 va 1001 d) 999 va 1001
- Do'konda 1 kunda 300 kg go'sht sotildi. Shundan keyin do'konda sotilgan 200 kg kam g'osht qoldi. Dastlab do'konda necha kilogramm go'sht bo'lgan?
- a) 400 kg b) 100 kg d) 500 kg

Uyga vazifa va darsni yakunlash. (5 daqiqa)

- Biz bugun nimani o'rgandik?
- Guruhlarda ishlash sizga yoqdimi?
- Guruhda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi va guruh ballari e'lon qilinadi.
- Yuzliklar haqida ma'lumotlarga ega bo'ldingizmi?
- Darsga yakun yasaladi va o'quvchilar bahosi daftoriga qo'yiladi.

E'TIBORINGIZ

UCHUN

RAHMAT!!!